

TARBIYACHI –PEDAGOGNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI

Nigora Mamatmo‘minova

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Maktabgacha ta ‘lim yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi

Maqsuda Norbosheva

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dots.v.b.

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ilmiy rahbar

Annotatsiya

Mazkur maqola tarbiyachi –pedagogning psixologik-pedagogik madaniyatini shakllantirish ahmiyati haqida yozilgan bo‘lib. O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarning asosiy maqsadi – har bir bolada mavjud bo‘lgan qobiliyat va layoqatlarni erkin rivojlantirish, ilm asoslarini, umuminsoniy va milliy – ma‘naviy, madaniy, qadriyatlarni o‘rganish, yuksak axloqiy fazilatlarni, fuqarolik burchini, milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirish, yoshlarni mehnat faoliyatiga, mustaqil hayot kechirishga yo‘naltirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: tarbiyachi, pedagog, psixolog, madaniyat, shakl, ta‘lim.

Hozirgi yuksalish davri va O‘zbekiston fan, madaniyat va ta‘lim taraqqiyotidan kelib chiqsak, maktabgacha ta‘lim tizimidagi ta‘lim-tarbiya ishlari ham tobora rivojlanmoqda, tarbiyachi-pedagoglarning ham saviyasi davlatimiz ko‘rsatmalariga muvofiq ravishda ortib bormoqda[1].

Pedagoglik alohida kasb bo‘lib, u har bir mutaxassisdan yuksak darajada g‘oyaviy-siyosiy yetuklikni intellektual barkamollikni va ensiklopedik ma‘lumotlilikni to‘liq egallagan bo‘lishlikni talab etmoqda.

Ta‘lim–tarbiyada tarbiyachi – murabbiylarning pedagogik mahoratini mukammal egallashi hal qiluvchi ahmiyatga egadir. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta‘lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir[2].

Tarbiyachilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; ruhiy - pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik; dilkashlik; o‘zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik sifatlari muhimdir. Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin.

Pedagogik mahorat hamda uni egallah yo‘llari haqida gap ketar ekan, avvalo pedagogik san’at, texnikaga ega bo‘lish muhimligini ta‘kidlab o‘tamiz. Pedagogik san’at-bu qandaydir qo‘l bilan tutib bo‘lmaydigan, faxm-farosat bilan amalga oshiriladigan narsadir, degan taassurot tug‘iladi. Har qanday ijodkorlik, buning ustiga pedagogik ijodkorlik quruq joyda, faqat hissiy reaksiyalar asosida boshlanishi mumkin emas. Pedagogik mahorat ustalari ta‘lim-tarbiya jarayonida vujudga keladi, bolalar bilan muomalada tarbiyalanadi. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, faxm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi. Albatta, pedagogning mahorati erishilgan narsalar chegarasidan tashqariga chiqishiga doimo intilishni ham nazarda tutadi[3].

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti tarbiyachini ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olish, fan yutuqlarini bolalarga yetkaza olish va nihoyat bolalari ham erkin fikrlashga, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishni talab qiladi. Shuning uchun tarbiyachi avvalo tadqiqodchilik malakalarini egallashi zarur[4].

Psixologik va pedagogik madaniyat mazmun jihatdan yaqin bo‘lib, ushbu sifatlar bugungi zamonaviy tarbiyachidan eng ko‘p talab qilinadigan mezonlardir. Bu tushuncha mazmuni bola va tarbiyachi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi asosini belgilaydi. Ushbu ma‘rifiy jarayon «inson – shaxs - rivojlanish», «shaxs –jamiyat», «shaxs - kasb», «shaxs – mahorat -ijodkorlik» ko‘rinishlarida amalga oshadi.

Pedagogik va psixologik bilimdonlik tarbiyachidagi metodik madaniyat qirralari bilan uyg‘un bog‘lanib ketadi. Bunda bolaning ongi, qobiliyati, iste’dodiga kuchli ta‘sir ko‘rsatilib, axloqiy – madaniyatli yangi inson shakllantiriladi. Faoliyat jarayonida tarbiyachi va bolalar shaxslararo muloqat va munosabatlarni, o‘zaro hurmat va ishonch hamkorligini yo‘lga qo‘yishga erishiladi. Garchi bu jarayon oson yo‘l bo‘lib hisoblansa ham, biroq ana shu usul asosida ish ko‘rgan tarbiyachi o‘zi xohlamagan holda ta‘lim mazmunini va sifatini ilmga moslashtirishga intiladi[5]. Bunda tarbiyachi va bolalarni didaktik hamkorligi ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mashg‘ulot davomida ta‘lim mazmuni, shakli orqali axloqiy sifatlar shakllanib boradi, bolalarda madaniyat, irodaviy sifatlari tarbiyalab boriladi[6]. Shu sababli, har bir tarbiyachi bu masalalarni hisobga olib, o‘z pedagogik madaniyati, psixologik savodxonligi, bilimi orqali bolalarning qiziqish va ma‘naviy ehtiyojlarini o‘stirishga intilmog‘i zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар, 9(3), 7.
2. Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(4).
3. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 297-303.
4. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Педагогика ва психологияда инновациялар, 11(3).
5. Norbosheva, M. (2020). Issues of moral perfection and spiritual height in the poem of “Kutadgu Bilig” by Yusuf Has Hadjib. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 2020.
6. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. O ‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NİZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 219.